



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 2 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH .....	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**Received:** 25 January 2025

**Accepted:** 1 February 2025

**Published:** 10 Febrary 2025

*Article / Original Paper*

## **PROCESS OF DEVELOPMENT OF INNOVATION ACTIVITY IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION**

**Khojimirzayeva Shakhnoza Shokir qizi**

University of Business and Science

teacher of non-state higher education institution

**Abstract.** The conditions and modern changes being implemented today in preschool educational organizations allow for the utilization of all opportunities, self-demanding attitudes, establishing cooperation with parents, mastering professional skills, self-improvement, and fully realizing one's capabilities and potential. This increases the need for qualified specialists. The analysis highlights the necessity of ensuring preschool education coverage for children, equipping organizations with modern educational and methodological materials and fiction, and attracting qualified pedagogical and managerial staff. The main focus is on improving preschool educational organizations, ensuring equal access to quality preschool education, and developing the non-governmental sector of preschool education services.

**Keywords:** innovative professional activity, preschool education, preschool educational organization, organization of the pedagogical process, cooperation with parents, managerial innovations, innovative management.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI**

**Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi,**

University of Business and Science

nodavlat oliy ta'lif muassasasi o'qituvchisi

E-mail: [shaxnozajojimirzayeva@gmail.com](mailto:shaxnozajojimirzayeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bugungi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida yaratilayotgan sharoitlar va zamonaviy o'zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalanish, o'ziga va faoliyatiga talabchan bo'lish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, kasbiy mahoratni egallash, o'zini o'zi rivojlantirish hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq ishga solish imkonini beradi. Bu esa malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar bolalarning maktabgacha ta'lif bilan qamrovini ta'minlash, tashkilotlarni zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, malakali pedagogik va boshqaruv kadrlarini jalg qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. E'tibor maktabgacha ta'lif tashkilotlarini takomillashtirish, sifatli ta'lifdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash va nodavlat sektorni rivojlantirishga qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** innovatsion kasbiy faoliyat, maktabgacha ta'lif, maktabgacha ta'lif tashkiloti, pedagogik jarayonni tashkil etish, ota-onalar hamkorligi, boshqaruv innovatsiyalari, innovatsion menejment.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N90>

**Kirish.** Maktabgacha ta'lif tashkilotida innovatsion jarayonlarni tahlil qilishda "ta'lifda innovatsiya" tushunchasi yangi ishlanmalar, vositalar, usullar hamda ta'lif va tarbiya texnologiyalarini joriy etish sifatida talqin etilishi muhimdir.

Innovatsion faoliyat, o'z navbatida, pedagogik faoliyatning alohida turi bo'lib, zamonaviy ta'lim muassasalari faoliyatini pedagogika sohasidagi yangi yutuqlar va eksperimental ishlarni qo'llashga yo'naltiradi. Ta'lim muassasasining turi va yo'nalistidan qat'iy nazar, pedagogik jamoaning faoliyatni ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lishi zarur. [ 2; 192b]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish jarayoni – bu uzlusiz, maqsadga yo'naltirilgan va qonuniyatli jarayon bo'lib, u muassasaning yangi sifat holatiga o'tishini, madaniy-ijodiy yondashuvni va taraqqiyot salohiyatidan keng foydalanishni ta'minlaydi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud: innovatsion dasturlarni mavjud dasturlar bilan muvofiqlashtirish; turli pedagogik konsepsiyalarni uyg'unlashtirish zarurati; yangi turdag'i ta'lim muassasalarining ota-onalar talablariga mos kelmasligi; ilmiy-uslubiy va moddiy-texnik ta'minotni yangilash ehtiyoji; malakali pedagogik kadrlarning yetishmasligi; yangiliklarni mahalliy sharoitlarga moslashtirishdagi qiyinchiliklar; innovatsiyalarni amalga oshirish va rivojlantirish uchun sharoitlarning yetarli emasligi. Bu muammolarni hal etish maktabgacha ta'limda innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatlil joriy qilish, ta'lim sifatini oshirish va uning rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va global raqobatbardosh darajaga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Shunday qilib, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion faoliyatni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik: har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti ikki asosiy holatda faoliyat olib borishi mumkin – "funksionallashuv" va "taraqqiyot". Zamonaviy mahalliy maktabgacha ta'lim tashkilotlari taraqqiyoti quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda: ta'lim mazmunini yangilash; bolalarni rivojlantirish uchun tizimlar, usullar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda amalga oshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida dolzARB muammolar va innovatsion faoliyat taraqqiyotining yetakchi yo'nalishlari aniqlanmoqda. Ta'lim tashkiloti faoliyatida sifatli o'zgarishlarga erishish uchun innovatsiyalarni izlash va tatbiq etish maktabgacha ta'lim tizimini optimallashtiruvchi bosh mexanizm hisoblanadi. Bu jarayonda yetakchi o'rinni innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyor ijodkor pedagoglar egallaydi. "Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo'lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi. "Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Innovatsiyaga har qanday turdag'i yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi

Keng ma'noda, innovatsiya – yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yaratiladigan va tarqatiladigan yangi ilmiy-amaliy vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks jarayon. Tor ma'noda esa, innovatsiya – biror jamoaning faoliyatini takomillashtirish uchun joriy etilayotgan va yangilik sifatida qabul qilinadigan vosita, uslub yoki yondashuv tizimidir.

Mazkur tushunchaning bugungi kungacha xilma-xil ta'riflari shakllantirilgan bo'lib, ularni tahlil etish asosida biz o'z tadqiqot yo'nalishimizni belgilab olish zaruriyatini his etdik.

Ta'lim tizimini boshqarishga doir o'ziga xos maktab yaratgan pedagog olim S. Turg'unovning fikricha, innovatsiya – bu maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi, nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiyl holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir. [3; 7b]

Malaka oshirish kurslarida tarix o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashga doir ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirgan M. Jumaniyozovaning ta'kidlashicha, innovatsiya – rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko'rinishida namoyon bo'ladigan ijodiy mehnat natijasi. U amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi hisoblanadi. Shu bilan birga, u boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. [4; 89b] M. Jumaniyozovaning fikricha, agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa va muayyan tizimdagi ayrim tarkibiy qismlarni o'zgartirishni maqsad qilgan bo'lsa, bu holatda biz "novatsiya" haqida so'z yuritamiz. Agar faoliyat muayyan konseptual yondashuv asosida amalga oshirilsa va uning natijasi tizimning rivojlanishiga yoki tubdan o'zgarishiga olib kelsa, bu holatni "innovatsiya" deb atash mumkin. Faoliyat xususiyati jihatidan novatsiya ko'lami va vaqt bo'yicha chegaralangan, innovatsiya esa yaxlit va davomli bo'ladi. Novatsiya natijasida amaldagi tizimda ayrim elementlar o'zgaradi, innovatsiya natijasida esa amaliyot subyektlarining pozitsiyalari to'la yangilanadi, tizimdagi aloqalar va tizimning o'zi isloh qilinadi.

N. Mamadov o'zining "Umumiyl ta'lim maktablarini innovatsion boshqarish" deb nomlangan tadqiqotida innovatsiyani boshqaruv obyektini o'zgartirish, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik samaralarga erishish maqsadida muayyan sohalarga yangilikni tatbiq etish natijasi sifatida ta'riflaydi.

Shu asosda "innovatsiya" tushunchasini quyidagicha ta'riflashni taklif etamiz: "Innovatsiya – bu obyekt va subyekt faoliyatida sifat o'zgarishlarini ta'minlovchi, keng ommalashgan va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan, an'anaviylik va istiqbol o'rtasida "ko'pri" vazifasini bajaruvchi, tizimli, uzviy va uzlusiz tarzda yangilikni kiritish jarayonidir." Mazkur ta'rif innovatsiyaning tizimli va strategik ahamiyatini ta'kidlab, uning uzlusiz rivojlanish va amaliy natjalarga erishish uchun ekanini ifodalaydi.

**Tahlil va natijalar.** Innovatsiyalar texnologiya, iqtisodiyot, savdo-sotiq va ijtimoiy tizimlar bilan aloqador holda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: pedagogik, iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va boshqa yo'nalishlarda. Yoki yangiliklarni qo'llanilish sohasiga qarab texnik, tashkiliy, metodik, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy guruhlarga ajratish mumkin. Innovatsiyalarning turli ko'rinishlari orasida pedagogik innovatsiyalar alohida ahamiyat kasb etib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning muhim vositasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik yangiliklarni o'rganish, o'zlashtirish, ularni baholash, foydalanish va amaliyotga tatbiq etish tushuniladi. Pedagogik innovatsiyalar bir necha turlarga bo'linadi: modifikatsiyalashgan, tuzatish kirituvchi, o'zgartirish kirituvchi, lokal, modulli, tizimli va boshqalar. Ammo pedagogik innovatsiyalarning umumiyl tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi: ta'lim va tarbiya maqsadi, vazifalari hamda mazmuniga doir innovatsiyalar; o'quv-

tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovatsiyalar; o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar. Pedagogik innovatsiyalar keng qamrovga ega bo'lib, ularning jamiyat tomonidan qabul qilingan aniq tipologiyasi yoki tasnifi mavjud emas.

O.G. Xomeriki o'quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bog'liq holda innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

- Ta'lif mazmuniga doir innovatsiyalar;
- O'quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovatsiyalar;
- O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar;
- Ta'lif tizimini boshqarishga doir innovatsiyalar.

M.M. Potashnik va V.S. Lazarevlar ta'linda qo'llanilish ko'lamiga ko'ra innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratadi: Lokal, alohida, o'zaro bog'lanmagan xususiy innovatsiyalar; o'zaro bog'langan, xususiy innovatsiyalar majmuini ifoda etuvchi modulli innovatsiyalar; butun ta'lif muassasasini qamrab oluvchi tizimli innovatsiyalar.

Yangilikning o'zgarish tezligi va yangilik darajasiga ko'ra innovatsiyalarning ko'proq detallashtirilgan tasnifini N.Yu. Postalyuk quyidagicha taklif etadi:

Nulevoy raqamli innovatsiyalar – tizimning dastlabki xususiyatlarini regeneratsiya qilish (an'anaviy ta'lif tizimi yoki uning elementlarini qayta ishlab chiqish).

Birinchi raqamli innovatsiyalar – tizimda miqdor o'zgarishlar kiritish bilan tavsiflanadi. Bunda innovatsiyaning dastlabki sifati o'zgarmaydi.

Ikkinci raqamli innovatsiyalar – tizim ichidagi elementlarni qayta guruhlashtirish yoki tashkiliy jihatlarini o'zgartirish bilan tavsiflanadi (mavjud pedagogik vositalarning yangi ko'rinishi, ketma-ketligini o'zgartirish, ulardan foydalanish qoidalari va boshqalar).

Uchinchi raqamli innovatsiyalar – ta'lif tizimining yangi shart-sharoitlarga moslashuvchan o'zgarishini ifoda etadi.

To'rtinchi raqamli innovatsiyalar – yangi yechimga ega bo'ladi (ko'pincha ta'lif tizimining ba'zi tarkibiy qismlari funksiyasini kengaytirishni ta'minlashga qaratilgan sifatli o'zgarishlardir).

Beshinchi raqamli innovatsiyalar – ta'lif tizimining yangi avlodini yaratishni nazarda tutadi (tizimning barcha yoki ko'pchilik dastlabki xususiyatlarini o'zgartirish).

Oltinchi raqamli innovatsiyalar – "yangi turdag'i" ta'lif tizimini yaratadi. Bunda tizim hosil qiluvchi tamoyil saqlangan holda, tizimning funksional xususiyatlari o'zgaradi.

Yettinchi raqamli innovatsiyalar – ta'lif tizimini tubdan o'zgartirishga qaratilgan. Bunda ta'lif tizimining asosiy funksional tamoyili o'zgaradi va shu tarzda yangi pedagogik tizim hosil bo'ladi. Pedagogik innovatsiyalarni yuqorida bayon etilgan tasniflarga asoslangan holda, B. Xodjayev va Sh. Zufarovlar tasnifi bo'yicha pedagogik ta'lif jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik innovatsiyalarning umumlashgan tizimini hosil qilish mumkin.

D. Yunusova ta'lif-tarbiya jarayonini texnologik jarayon sifatida qarab, joriy etiladigan yangiliklarni ushbu jarayonning asosiy komponentlari (ta'lif maqsadi, ta'lif mazmuni, o'qitish metodi, o'qitish vositasi, ta'lif natijasi) asosida guruhlashtirishni taklif etadi:

1. Ta'lif maqsadi bilan bog'liq pedagogik innovatsiyalar: modernizatsiyalashgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi (kasbga yo'naltirish, to'ldirish, insonparvarlashtirish, tabaqalashtirish, integrallash, individuallashtirish va boshqa maqsadlarga ko'ra);

2. Ta'lif mazmuni bilan bog'liq pedagogik innovatsiyalar: miqyosiga ko'ra – uzlusiz ta'linda, alohida ta'lif turida, ayrim fanda, bobda, mavzuda, mavzu materialining ayrim

qismida; darajasiga ko'ra – takomillashtirish, tubdan o'zgartirish, o'zidan oldingisiga nisbatan – yangi dastur, dasturni takomillashtiruvchi, o'quv materialini to'ldiruvchi; paydo bo'lishiga ko'ra – me'yoriy hujjatlar o'zgarishi asosida rejali, oldindan o'ylangan, ichki va tashqi; 3. O'qitish metodi bilan bog'liq pedagogik innovatsiyalar: miqyosiga ko'ra – uzlusiz ta'limda, alohida ta'lim turida, ayrim fanda, bobda, mavzuda, o'quv mashg'uloti shakli va turida; darajasiga ko'ra – takomillashtirish, ko'rinishini o'zgartirish, ma'lum uslubiyot elementlarini yangicha talqinda ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan tasniflar pedagogik innovatsiyalarning turli shakllari va darajalari mavjudligini ko'rsatadi. Har bir tasnif innovatsiyalarning ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'lim tizimining rivojlanishi va uning samaradorligini oshirish uchun innovatsiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish muhim hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi pedagogik innovatsiyalarga oid tasniflardan ko'rinish turibdiki, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar ta'lim maqsadi, mazmuni, metod va texnologiyasi, ta'limni tashkil etish shakli, boshqaruv tizimi, pedagogik faoliyat va o'quv-bilish jarayonini tashkil etish uslubi, nazorat va ta'lim olganlik darajasini baholash tizimi, ta'limni moliyalashtirish tizimi, o'quv-metodik ta'minot, tarbiyaviy ishlar tizimi, o'quv reja va o'quv dasturlari, professor o'qituvchi va talaba, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelmoqda. Pedagogik innovatsiyalar, o'z navbatida, ta'lim jarayonini tashkil etish parametrlarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Birinchidan, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog'liq holda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qilayotgan bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim muassasalari variativligining qiyosiy modellarining ko'rsatkichlari ham murakkablashib bormoqda. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, ta'limdagi innovatsiyalarni ikki xil xususiyat – tashqi va didaktik xususiyatlarga ko'ra tasniflash lozim deb topildi (1-chizma).

## TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

### TA'LIMDA INNOVATSIYA

#### **Tashqi (formal) xususiyatlari**

- ta'lism tizimi;
- egallanadigan daraja;
- OTMga qabul qilish tartibi;
- ta'lism olish tili;
- o'quv jarayoni jadvali;
- o'quv mashg'ulotlari jadvali;
- tarbiyaviy ishlarning shakli;
- mashg'ulotlarni tashkil etilish tartibi

#### **Didaktik xususiyatlari**

- maqsadlar taksonomiyasi;
- ta'lism mazmuni;
- didaktik konsepsiylar;
- o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati;
- ta'lism tamoyillari;
- ta'lism metodlari, metodika va texnologiya;
- ta'lismni tashkil etish shakllari;

1-chizma. Bo'lajak matabgacha ta'lism mutaxassislarini innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlashning tasnifiy parametrlari.

Pedagogik innovatsiyalarning jadallik bilan amaliyotga kirib borishi natijasida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion yo'nalganligi an'anaviylikdan farqli ravishda quyidagi muhim ahamiyatga ega jihatlarda o'z aksini topib bormoqda.

1-jadval. An'anaviy va innovatsion ta'limga qiyosiy tahlili.

<b>Ta'limga qiyosiy an'anaviy yo'nalganligi</b>	<b>Ta'limga qiyosiy innovatsion yo'nalganligi</b>
Texnogen sivilizatsiya	Antropogen sivilizatsiya
Ta'lism oluvchi – obyekt	Ta'lism oluvchi – subyekt
"Bilimli inson"	"Harakatlanuvchi inson"
Pedagogik idrok etish	Pedagogik ijodkorlik
Pedagogik chora-tadbirlar	Pedagogik munosabatlar
Pedagog-vasiylik	Pedagog-menejer
Birgalikdagi faoliyatning avtoritar uslubi	Birgalikdagi faoliyatning demokratik uslubi
Faoliyatli yondashuvga asoslanganlik	Faoliyat, muloqot va shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish orqali ijtimoiylashuvi

Yuqoridagi fikrlardan ko'rindiki, matabgacha ta'lism mutaxassislarini kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlash ta'lism texnologiyalarini o'zlashtirishi bilan bog'liq.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Майер А.А. Управление инновационными процессами в ДОУ: Методическое пособие. – М.: ТЦ Сфера, 2009.
2. Макаренко А.С. О воспитании. Золотой фонд педагогики. – М.: Школьная пресса, 2003. – 192 с.
3. Турғунов С.Т., Мақсудова Л.А. Умумий ўрта таълим муассасаларида педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда инновациялар. // Мактаб ва ҳаёт. – Т., 2009. – №1. – Б. 7.

4. Жуманиёзова М. Инновацион фаолият – таълим сифатининг кафолатидир. – Т.: 2004. – №6. – Б. 89, 91.
5. Хуторский А.В. Педагогическая инноватика. – М.: Академия, 2008.
6. Ходжаев Б., Зуфаров Ш. Педагогик инноватика. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2010. – Б. 14–15.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 2 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).